

KASB-HUNAR LEKSIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna
Far DU akademik litseyi o'qituvchisi
Zilolamsmqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasb-hunar leksikasi haqidagi nazariy qarashlar, kab leksemasining tilshunoslik lug'atlaridagi izohi va tadqiqotlardagi sharhlari izohlab o'tilgan. Kasb leksikasiga sinonim bo'lgan birliklarning lug'aviy ma'nolari izohlangan. Kasb-hunar leksikasining asosiy begilari sanab o'tilgan.*

Abstract: *In this article, the theoretical views on the professional lexicon, the interpretation of the lexeme kab in the linguistic dictionaries and the comments in the studies are explained. The dictionary meanings of units synonymous with the lexicon of the profession are explained. The main terms of the professional lexicon are listed.*

Kalitso'zlar: *Kasb-hunar leksikasi, kasb leksemasi, kasb-kor juft so'zi pasha leksemasi, mashg'ulot leksemasi, kulolchilik kasb-hunar leksikasi, poyabzaldo'zlik kasb-hunar leksikasi, tikuvchilik kasb-hunar leksikasi, quruvchilik kasb-hunar leksikasi.*

Keywords: *Lexicon of profession, lexeme of profession, lexeme of occupation, lexeme of occupation, lexeme of occupation, lexicon of pottery, lexicon of shoemaking, lexicon of tailoring, lexicon of construction.*

Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson, uning ongi, tafakkuri va turli faoliyat shakllari bilan bog'liq holda tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy hayotda har bir faoliyat turi o'zining terminlar tizimi va sohaga oid leksikasiga ega. Jamiyatda amalga oshayotgan ilmiy kashfiyotlar, texnologik rivojlanish va o'zgarishlar yangi-yangi tushunchalarni yuzaga chiqarib, tilshunoslikning terminologiya sohasi rivojini ta'minlamoqda. Shuningdek, kasb-hunar leksikasi ham har qanday til lug'at boyligining tarkibiy qismi sanalib, u muayyan sohaning o'ziga xos xususiyatlari, soha vakillarining fazilatleri, real dunyo bilan o'rnatilgan aloqa va munosabatlarning turli jihatlarini o'zida aks ettiradi.

Har bir til o'z taraqqiyoti davomida murakkab evolyutsion bosqichlarni bosib o'tadi. Adabiy tilning paydo bo'lishi, taraqqiy etishi, bugungi ko'rinishga kelishi sohaviy leksikaning takomili bilan ham ma'lum darajada bog'liqdir. Xalq hunarmandchiligi sohasi ko'plab leksik shakllarni mavzuiy birlashtiradi, til lug'at tarkibi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shu bois o'zbek tilshunosligida kasb-hunar leksikasi tadqiqi yuzasidan muayyan ishlarni amalga oshirish, xususan, kulolchilik sohasiga oid birliklarni lingvistik aspekda o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Yurtimizda qadimdan shakllanib kelayotgan kulolchilik an'analarini asrab-avaylash, tiklash va rivojlantirish, xalqaro darajada keng targ'ib qilish, kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va uning eksport darajasini oshirish, usta kulol hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, usta-shogird maktablari faoliyatini takomillashtirish maqsadida

2021-yilning 23-martida “Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi va bu sohaga e‘tibor kuchaytirildi¹². Chunki kulolchilik buyumlari o‘zbek xalqining milliy madaniyati sifatida mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar diqqatini jalb qilib kelmoqda. Kulolchilik mahsulotlari turli ko‘rgazmalarda o‘zbek madaniyatini dunyo bo‘ylab yoyishning asosiy omillaridan biri sifatida xizmat qiladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, kasb-hunar leksikasi ayni paytda milliylik belgisiga ham ega. Shuning uchun uni kishilarning mehnat faoliyati, kundalik mashg‘uloti bilan bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Kasbiy faoliyat inson hayotining uzviy qismi bo‘lganligi sababli kasb-hunarga oid birliklarni taqiq etishda xalqning urf-odatlarini, qadriyat va an‘analarini ham e‘tiborga olish zarur. Kasb-hunar leksikasi terminlar kabi tilning maxsus birliklari qatoridan o‘rin oladi. O‘zbek tilida kasb-hunar leksikasi haqida fikr yuritishdan avval mazkur birliklar, ular anglatgan lug‘aviy ma‘nolar va ma‘no qirralari haqida to‘xtalish joiz.

Tilshunoslikda kasb tushunchasining qamrovi keng bo‘lib, unga lug‘atlarda bir qancha ta‘riflar berilgan. Bir guruh olimlar kasbni insonning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turi bo‘lib, moliyaviy to‘qlik yoki yetishmovchilikni uning natijasi deb ta‘riflagan bo‘lsalar, yana bir guruh mutaxassislar “kasb – bu insonning bilim darajasi, dunyoqarashi kabi bir qancha omillar orqali o‘zini realizatsiya qilish¹³, deb baholaydilar. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kasb leksemasiga quyidagicha izoh berilgan: Kasb – biror narsani o‘rganish, egallash, foyda; hunar, mashg‘ulot. Ish-faoliyatning ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. Bu kishi o‘zlari hosilot, kasblari agronom, kechki maktabda muallimlik ham qilishadilar (A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlari”)¹⁴ Shuningdek, kasb leksemasining quyidagi ma‘nolari O‘TIL da keltirilgan:

1. Ish-faoliyatning ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. Hayotda shunday odamlar bo‘ladiki, ular butun umrlarini faqat bir ishga, biron kasbga bag‘ishlaydilar. (X.Yodgorov, “Hayot to‘lqinlari”)

2. Umuman, odat qilingan ish; odat. Foydaxo‘rlik – tan-suyagingizga singib ketgan kasbingiz. (H.G‘ulom, “Mash‘al”).

Kasb leksemasining etimologiyasi xususida Sh.Rahmatullayev quyidagilarni bayon etgan: “Kasb – bu arabcha so‘z kasb(un) shakliga ega, ko‘p ma‘noli kasaba fe‘lining “o‘z mehnati bilan mablag‘ topmoq” ma‘nosidan hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “foйда”, “yutuq”, “maosh” ma‘nolarini anglatadi. O‘zbek tilida esa bu so‘z ish-faoliyatning biror sohasi, hunar ma‘nosini anglatadi¹⁵. Hozirgi kunda mazkur birliklarning ma‘no doirasi toraygan. So‘zning “kishining

¹²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 мартдаги “Кулолчиликни жадал ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3053-сон Қарори.

¹³ Karimov H. Kasb tushunchasi va uning inson hayotida tutgan // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” konferensiya materiallari. – 2021 – № 2. – B. 33-35.

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – B. 328.

¹⁵ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд – Тошкент: Университет, 2003. – B. 197.

faoliyati”, “doimiy mashg‘ulot turi” ma’nosi qolgan ma’nolariga nisbatan dominantlik qiladi. Kasb so‘zi hunar, peshar, kasb-kor, ixtisoslik, mutaxassislik leksemalari bilan bir sinonimlar qatorini tashkil etadi. Ammo ma’no nozikliklari, uslubiy qo‘llanishga ko‘ra ushbu birliklar o‘zaro farqlanadi. Jumladan, hunar so‘zi asli forscha bo‘lib, “san‘at”; “bilim, ko‘nikma, mahorat, ustalik”; “kasb” kabi ma’nolarni bildiradi. Hunar so‘zi o‘zbek tiliga tojik tili orqali o‘zlashgan bo‘lib, asli “layoqat”, “san‘at” ma’nolarini anglatadi. Keyinchalik kasb ma’nosini ham anglati boshlagan¹⁶. Demak, hunar va kasb so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘lib, kasb-hunar juft so‘zi o‘zaro ma’nodosh so‘zlardan tashkil topgan. Bu juftlikdagi hunar leksemasi forscha so‘z bo‘lib, “san‘at; bilim, ko‘nikma, mahorat, ustalik; kasb”¹⁷ degan ma’nolarni anglatadi. O‘TIL da uning quyidagi ma’nolarda ishlatilishi ko‘rsatilgan:

1. Muayyan ko‘nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbayi hisoblanuvchi ish, mashg‘ulot; kasb. Otasining hunarini yaxshi egallab olgan bu yigitcha uchun qishloqda ish ko‘p edi. (S.Ahmad, “Hukm”)

2. Biror ishdagi mahorat, san‘at; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat. Konferansye “ikkinchi nomerda xohlagan kishi xohlagan hunarini ko‘rsatishi mumkin”, deb hammani kuldirdi. (A. Qahhor, Tanlangan asarlar)

3. Odat tusidagi ish, harakat. Uyda qovog‘ini osiltirib, ko‘chada begona ayolni ko‘rganda iljayadigan, tirjayadigan hunarga o‘rgandi. (“Mushtum”)

4. Bo‘lmag‘ur, kelishmagan xatti-harakat, qiliq, odat. Abdushukur, ovozni bunchalik boshqacha qilishni kimdan o‘rganding?! Hunaringga balli-ye.. (Oybek, Tanlangan asarlar)

Kasb-hunar juftligida kasb va hunar so‘zlari yolg‘iz qo‘llanilganidan ko‘ra kengroq tushuncha ifodalanadi. Mazkur juft so‘zda ma’lum kasbni egallash uchun ham ilmiy, ham amaliy ko‘nikmalarni egallash jarayoni nazarda tutiladi.

Kasb-kor juft so‘zi arabcha kasb, “ish” ma’nosini anglatuvchi tojikcha kor so‘zlaridan tuzilgan bo‘lib, kasb-u kor shakliga ham ega, “ish-faoliyat turi”, “ish-mashg‘ulot” ma’nosini anglatadi¹⁸.

Pesha fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, mashg‘ulot, kasb, ixtisos degan ma’nolarni anglatadi. Pesha lug‘aviy birligi quyidagi ma’nolarda ishlatiladi. Ish, mashg‘ulot; kasb, hunar. Xonning o‘g‘li, deb qilmanglar andisha, To‘qqiz yoshda qildi shu ishni pesha. (“Erali va Sherali”)¹⁹

Mashg‘ulot leksemasi ham arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ish-yumush, kasb kabi ma’nolarni ifodalaydi. Arab tilida ma’lum mehnat, mashg‘ulot jarayonida tayyorlangan buyumlar ma’nosini anglati, o‘zbek tilida esa, ish o‘rganish, o‘qish bilan shug‘ullanish ma’nosini bildiradi. Men bu yerda otam va onamning mashg‘ulotlari to‘g‘risida biroz gapirib o‘tishni lozim bilaman. (S.Ayniy, “Esdaliklar”)²⁰

¹⁶ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 280.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 561.

¹⁸ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 197.

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 250.

²⁰ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 249.

Kasb inson hayoti bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Dastlabki kasblar insoniyat sivilizatsiyasidan ancha oldinroq paydo bo'lgan. Inson ongi, yashash sharoiti, turmush tarzi rivojlanishi natijasida kasblar ham takomillashib, tarmoqlanib borgan. Hatto ibtidoiy odamlar orasida ham ma'lum darajada kasbiy taqsimot tushunchasi bo'lgan. O'sha davrlarda erkakning vazifasi yashash hududi, ayollar va bolalarning xavfsizligini, qabilani oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'lsa, ayollar farzand tarbiyalash va uyda o'choqdagi olovni o'chirmaslik, uyni har doim isitib turish kabi yumushlarni bajargan.

Ko'chmanchi qabilalar o'troqlashgach, qishloq xo'jaligining rivojlanishi boshlandi. Bu esa odamlarni yerga ishlov berishda mehnat jarayonini yanada yengillashtiruvchi qulay qurilmalar ixtiro qilishga undadi. Shu tariqa hunarmandchilik paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan dehqonchilik, kulolchilik va temirchilik kabi kundalik turmush tarzi bilan bog'liq kasb-hunar turlari ana shu tariqa paydo bo'lgan. Ma'lum kasb egalari tomonidan qo'llangan birliklar shu asnoda yuzaga kelgan va soha leksikasi shakllanib, sayqallanib borgan.

Terminologiy keng qamrovli soha bo'lib, K.M.Musayev uni go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Olimning fikricha, "terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi"²¹. Har bir kasbda shu soha vakillari qo'llaydigan terminlar tizimi mavjud. Masalan, tikuvchilik, duradgorlik, do'ppido'zlik kabi kasb-hunar yo'nalishlarining o'ziga xos maxsus leksikasi mavjud.

1. Kulolchilik kasb-hunar leksikasidan: Gilvata – yumshoq, kulrang tog' jinsi, gilmoya (xalq tabobatida tomoq og'rig'i, og'iz elikishi kabi kasalliklarga qarshi dori sifatida ishlatilgan)²². Tog'dan chiqadigan ko'kimtir oq tusli loy. Undan "angob" tayyorlanib, xom idishlar sirlash oldidan bo'yaladi. Chunki angob idishga oq tus beradi.

2. Poyabzaldo'zlik kasb-hunar leksikasidan: Sirach – 1. Piyozdoshlarga mansub, adir va tog'larda o'sadigan ko'p yillik o'simlik. 2. Shu o'simlik ildizidan olinadigan kukun. Buni – (tayyor mahsilarni) sotib, charm, ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolarni oladi. (Oybek, Tanlangan asarlar) 3. Qog'oz, charm va sh. k. ni yopishtirish uchun shu kukundan suvga qorib tayyorlangan, ko'pincha etikdo'zlikda, kosibchilikda ishlatiladigan yelim. Akbarali otasining yonida ip eshib, sirach qorar, oyisining o'g'irda jo'xori talqon tuyib, zarang kosaga bir qoshiq shinni solib berishini toqatsizlik bilan kutardi. (A.Muxtor, "Chinor") Ko'chma ma'noda – Surbet, xira, yelim (odam haqida)²³.

3. Tikuvchilik kasb-hunar leksikasidan: Adip – to'n, chopon va sh.k.ning yoqasidan etagigacha ichki chetiga tutilgan ensiz gazlama. To'ning adipi. (O'TIL I. 40-b)

²¹ Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – Москва, 1986. – С.163.

²² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – Б.501.

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд.– Тошкент: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – Б.520.

Andaza - o'lchov, qolip - 1. Kiyim-bosh, poyabzal va sh.k. ni bichish, tayyorlash uchun qalin qog'oz, karton va sh. k.dan yasalgan nusxa qolip. Etik andazasi. Chelak uchun andaza yasamoq. Andaza bilan ish bichmoq. (O'TIL, I.84-b.)

4. Quruvchilik kasb-hunar leksikasidan: Pona - 1. Narsalarni yorish, kerish yoki birlashtirish uchun ishlatiladigan, bir uchi tig'li yog'och yoki temir. Temir pona. Yog'och pona. Pona qoqmoq. Pona qoqib mahkamlamoq. Masalan: Uning bir qo'lida mushuk kallasi kaltasop bolg'a, boshqa qo'lida temir pona. (M.Ismoilij, "Farg'ona tong otguncha") (O'TIL, III. 294-b.)

Shayton - duradgorlik va binokorlik ishlarida: sathning tekisligini aniqlash uchun ishlatiladigan asbob; vaterpas. Gorizont tekisligini shayton yordami bilan bilish mumkin. "Astronomiya". Taxtaning bir uchini qoziqqa qadab, ikkinchi uchini ungur tomonga qaratib, shayton bilan tekislanadi. (M.Ismoilij, "Farg'ona tong otguncha")²⁴. Bu kabi ko'plab kasb-hunar leksikasi sohaga doir lug'atlarda izohlangan.

Ko'rinadiki, kasb-hunar leksikasi muayyan kasb yoki hunar doirasida qo'llanuvchi maxsus birliklardir. Xususan, kulolchilik soha leksikasining paradigmatic, sintagmatic tadqiqi orqali o'zbek tili lug'at tarkibini juda ko'p so'zlar bilan boyitish mumkin. Shu bois kasb-hunarga oid birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning lingvokulturologik jihatlari, semantikasi va pragmatikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamda tadqiq etilmoqda²⁵. Jumladan, Myunxen universiteti (Germaniya); Kaliforniya universiteti, Garvard universiteti (AQSH), Rossiyadagi "Rossiya terminologiya maktabi", Moskva semantika maktabi (Rossiya); Southampton universiteti (Buyuk Britaniya); Oksford universiteti (Angliya); Kolorado universiteti (AQSH); Avstriyadagi "Vena terminologiya maktabi", Chexoslovakiyaning "Praga terminologiya maktabi" kabilar ilmiy maktablarning jamiyat hayotida, har bir fan sohasida naqadar muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.²⁶ Shuningdek, INFOTERM, TermNet, ISO, ISO 860 kabi butunjahon terminologiyani standartlashtirish qo'mitalarining ish olib borayotgani, ularning sa'y-harakatlari bilan tuzilgan "ISO 704" xalqaro terminologiya standartining faoliyat yuritayotgani ham terminlarning kishilik jamiyatidagi o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд.– Тошкент: О‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 534.

²⁵ www.dissercat.com, www.philol.msu.ru, www.myfilology.ru/semantika/moskovskaya-semanticheskaya-shkola, www.ucla.edu, www.harvard.edu, www.mannheim.de, www.msu.ru, www.usyd.edu.au, www.vspu.ac.ru, www.umn.edu, www.berkeley.edu, www.academia.edu, www.udsu.ru; www.pi.sfedu.ru, www.bsu.ru, www.libguides.usc.edu, www.diva-portal.org, www.education.com.

²⁶ Бу ҳақда қаранг: Temmerman R. Questioning the univosity ideal // The difference between socio-cognitive terminology and traditional terminology. – Amsterdam-Rodopi. 2000. – P. 3.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 23 мартдаги “Кулолчиликни жадал ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3053-сон Қарори.
2. Karimov H. Kasb tushunchasi va uning inson hayotida tutgan // “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” konferensiya materiallari. - 2021 - № 2.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. - Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд - Тошкент: Университет, 2003.
5. Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. - Москва, 1986.
6. www.dissercat.com, www.philol.msu.ru, www.myfilology.ru/semantika/moskovskaya-semanticheskaya-shkola, www.ucla.edu, www.harvard.edu, www.mannheim.de, www.msu.ru, www.usyd.edu.au, www.vspu.ac.ru, www.umn.edu, www.berkeley.edu, www.academia.edu, www.udsu.ru; www.pi.sfedu.ru, www.bsu.ru, www.libguides.usc.edu, www.diva-portal.org, www.education.com.